# ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy oʻrinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning oʻzida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda oʻzini oʻzi taʼminlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Maʼlumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va maʼnaviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bogʻliq.

Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli boʻlib, u yerda yakka isteʼmolchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali oʻzaro aloqada boʻladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shugʻullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Maʼlumki, bozor tizimida hamma narsa oʻz narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan boʻlsak, unda oʻz-oʻzidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali taʼminlaydigan keng tizimga ega boʻlamiz.

Oʻzbekistondagi korxonalar faoliyati Oʻzbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini oʻz ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

## Korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar

*fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari, 1- avgust holatiga koʻra, birlikda*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2022- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra*

### Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o‘sish sur’ati




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 059 |
| Sanoat | 677 |
| Qurilish | 160 |
| Savdo | 1 196 |
| Tashish va saqlash | 99 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 109 |
| Axborot va aloqa | 71 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 88 |
| Boshqa turlar | 395 |

### Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 672 | Qo‘rg‘ontepa t. | 218 |
| Baliqchi t. | 390 | Oltinko‘l t. | 194 |
| Andijon t. | 334 | Marhamat t. | 187 |
| Shahrixon t. | 316 | Jalaquduq t. | 164 |
| Asaka t. | 316 | Bo‘ston t. | 130 |
| Izboskan t. | 232 | Buloqboshi t. | 122 |
| Paxtaobod t. | 231 | Ulug‘nor t. | 69 |
| Xo‘jaobod t. | 228 | Xonobod sh. | 51 |

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 854 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko‘rsatkich 173 taga ko‘p va 104,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o‘tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Baliqchi (108 ta), Shahrixon (70 ta), Izboskan (62 ta), Xo‘jaobod (61 ta), Qo‘rg‘ontepa (54 ta), Paxtaobod (48 ta) va Marhamat (36 ta) tumanlarida sezilarli o‘sish kuzatildi.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**3 590** 135,4 % Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**9 686** 105,1 % Sanoat

**3 305** 99,5 % Qurilish

**12 819** 110,8 % Savdo

**1 434** 103,7 % Tashish va saqlash

**1 974** 101,6 % Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

**596** 99,0 % Axborot va aloqa

**1 095** 113,6 % Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

**8 929** 105,2 % Boshqa turlar

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 12 809 |
| Asaka t. | 4 085 |
| Shahrixon t. | 3 043 |
| Andijon t. | 3 031 |
| Baliqchi t. | 2 398 |
| Izboskan t. | 2 159 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 2 144 |
| Oltinko‘l t. | 2 119 |
| Marhamat t. | 1 913 |
| Xo‘jaobod t. | 1 861 |
| Paxtaobod t. | 1 829 |
| Jalaquduq t. | 1 775 |
| Buloqboshi t. | 1 340 |
| Bo‘ston t. | 1 179 |
| Xonobod sh. | 892 |
| Ulug‘nor t. | 851 |

2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning mos davriga (40 131 ta) nisbatan 3 297 taga oshib, o‘sish sur’ati 108,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o‘tgan yilga nisbatan sezilarli o‘sishi Andijon (349 ta), Baliqchi (346 ta), Izboskan (334 ta), Asaka (332 ta) va Xo‘jaobod (313 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan eng yuqori ko‘rsatkich savdo sohasida – 1 254 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 938 ta, sanoatda – 472 taga to‘g‘ri kelib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 32 tani tashkil etdi.

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 627 |
| Baliqchi t. | 385 |
| Andijon t. | 324 |
| Shahrixon t. | 302 |
| Asaka t. | 295 |
| Paxtaobod t. | 227 |
| Izboskan t. | 225 |
| Xo‘jaobod t. | 217 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 213 |
| Oltinko‘l t. | 186 |
| Marhamat t. | 183 |
| Jalaquduq t. | 160 |
| Bo‘ston t. | 124 |
| Buloqboshi t. | 115 |
| Ulug‘nor t. | 65 |
| Xonobod sh. | 48 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 058 |
| Sanoat | 677 |
| Qurilish | 160 |
| Savdo | 1 196 |
| Tashish va saqlash | 99 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 109 |
| Axborot va aloqa | 71 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 84 |
| Boshqa turlar | 242 |

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 33 foizi yangi tashkil etilgan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o‘tgan yilga nisbatan Baliqchi (112 taga), Shahrixon (62 taga), Izboskan (60 taga), Xo‘jaobod (55 taga), Paxtaobod (51 taga) va Qo‘rgo‘ntepa (51 taga) tumanlarida sezilarli o‘sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o‘sish qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (772 taga) hamda tashish va saqlash sohasida (5 taga) o‘sish kuzatildi.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 38 039 tasi yoki 87,6 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’atlari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o‘sish qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (135,7 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (113,7 foiz), savdo (110,8 foiz), sanoat (105,1 foiz) hamda tashish va saqlash (103,6 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lsa, hududlar kesimida esa Xo‘jaobod (122,9 foiz), Baliqchi (120,3 foiz), Izboskan (120,1 foiz), Jalaquduq (118,4 foiz), Ulug‘nor (118,2 foiz), Bo‘ston (117,9 foiz) va Marhamat (116,7 foiz) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 11 642 |
| Asaka t. | 3 645 |
| Andijon t. | 2 719 |
| Shahrixon t. | 2 589 |
| Baliqchi t. | 2 096 |
| Izboskan t. | 1 874 |
| Oltinko‘l t. | 1 812 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 799 |
| Marhamat t. | 1 647 |
| Xo‘jaobod t. | 1 635 |
| Paxtaobod t. | 1 560 |
| Jalaquduq t. | 1 471 |
| Buloqboshi t. | 1 111 |
| Bo‘ston t. | 967 |
| Xonobod sh. | 783 |
| Ulug‘nor t. | 689 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3 559 |
| Sanoat | 9 664 |
| Qurilish | 3 302 |
| Savdo | 12 815 |
| Tashish va saqlash | 1 429 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 970 |
| Axborot va aloqa | 587 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 1 010 |
| Boshqa turlar | 3 703 |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil yanvar-iyul holatiga ko‘ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 626 | Qo‘rg‘ontepa t. | 213 |
| Baliqchi t. | 384 | Oltinko‘l t. | 186 |
| Andijon t. | 323 | Marhamat t. | 183 |
| Shahrixon t. | 302 | Jalaquduq t. | 160 |
| Asaka t. | 295 | Bo‘ston t. | 124 |
| Paxtaobod t. | 227 | Buloqboshi t. | 115 |
| Izboskan t. | 225 | Ulug‘nor t. | 65 |
| Xo‘jaobod t. | 217 | Xonobod sh. | 48 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi<br>**1 058** | Sanoat<br>**677** | Qurilish<br>**160** |
| Savdo<br>**1 196** | Tashish va saqlash<br>**99** | Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar<br>**109** |
| Axborot va aloqa<br>**71** | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish<br>**84** | Boshqa turlar<br>**239** |

Ma’lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2022- yil yanvar-iyul oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 162 taga oshgan. Ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 772 taga hamda tashish va saqlashda – 5 taga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




### Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| 3 550 | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi |
| 9 601 | Sanoat |
| 3 295 | Qurilish |
| 12 798 | Savdo |
| 1 421 | Tashish va saqlash |
| 1 969 | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| 587 | Axborot va aloqa |
| 1 007 | Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish |
| 3 665 | Boshqa turlar |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 11 573 | Marhamat t. | 1 641 |
| Asaka t. | 3 635 | Xo'jaobod t. | 1 628 |
| Andijon t. | 2 708 | Paxtaobod t. | 1 557 |
| Shahrixon t. | 2 585 | Jalaquduq t. | 1 465 |
| Baliqchi t. | 2 092 | Buloqboshi t. | 1 110 |
| Izboskan t. | 1 871 | Bo'ston t. | 965 |
| Oltinko'l t. | 1 805 | Xonobod sh. | 779 |
| Qo'rg'ontepa t. | 1 794 | Ulug'nor t. | 685 |

2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 2 899 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 108,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (135,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (113,7 foiz), savdoda (110,9 foiz) hamda sanoat (105,1 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Xo'jaobod (122,9 foiz), Baliqchi (120,2 foiz), Izboskan (120,1 foiz), Jalaquduq (118,2 foiz), Bo'ston (118,1 foiz) va Ulug'nor (118,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati







## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Asaka t. | 462 |
| Andijon sh. | 310 |
| Shahrixon t. | 293 |
| Andijon t. | 282 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 279 |
| Baliqchi t. | 267 |
| Izboskan t. | 266 |
| Paxtaobod t. | 246 |
| Marhamat t. | 204 |
| Jalaquduq t. | 200 |
| Oltinko‘l t. | 169 |
| Bo‘ston t. | 161 |
| Ulug‘nor t. | 151 |
| Xo‘jaobod t. | 145 |
| Buloqboshi t. | 107 |
| Xonobod sh. | 48 |

O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining ko‘pligi bo‘yicha, Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 2 992 |
| Asaka t. | 996 |
| Andijon t. | 858 |
| Shahrixon t. | 724 |
| Xo‘jaobod t. | 549 |
| Baliqchi t. | 486 |
| Oltinko‘l t. | 457 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 389 |
| Izboskan t. | 372 |
| Jalaquduq t. | 362 |
| Marhamat t. | 333 |
| Paxtaobod t. | 308 |
| Buloqboshi t. | 307 |
| Bo‘ston t. | 213 |
| Xonobod sh. | 206 |
| Ulug‘nor t. | 134 |

**9 344**
105,5 %
Ishlab chiqarish sanoati

**145**
99,3 %
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**35**
89,7 %
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

**162**
94,7 %
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Qayd etish kerakki, sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so‘nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o‘sish sur’ati 151,2 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilga nisbatan o‘sish 105,5 %), 1,5 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (99,3 % ni), 0,3 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (89,7 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (94,7 % ni) tashkil etgan.

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 1 305 |
| Asaka t. | 286 |
| Andijon t. | 232 |
| Shahrixon t. | 213 |
| Izboskan t. | 172 |
| Oltinko‘l t. | 145 |
| Marhamat t. | 138 |
| Baliqchi t. | 121 |
| Bo‘ston t. | 118 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 101 |
| Xo‘jaobod t. | 101 |
| Paxtaobod t. | 94 |
| Buloqboshi t. | 84 |
| Jalaquduq t. | 79 |
| Xonobod sh. | 68 |
| Ulug‘nor t. | 48 |




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 10,7 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 61,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,8 foizni tashkil etadi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 9,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,9 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 29,8 foiz ulushni va 99,0 foizni tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 3 503 |
| Asaka t. | 1 148 |
| Shahrixon t. | 859 |
| Baliqchi t. | 842 |
| Andijon t. | 813 |
| Oltinko'l t. | 746 |
| Izboskan t. | 730 |
| Qo'rg'ontepa t. | 683 |
| Paxtaobod t. | 644 |
| Jalaquduq t. | 581 |
| Marhamat t. | 576 |
| Xo'jaobod t. | 574 |
| Buloqboshi t. | 365 |
| Bo'ston t. | 308 |
| Xonobod sh. | 227 |
| Ulug'nor t. | 220 |




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,4 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,8 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,3 foiz ulushni tashkil etib, 12,4 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,3 foiz ulushni tashkil etib, 14,5 foizga o'sgan.

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 775 |
| Asaka t. | 176 |
| Andijon t. | 140 |
| Xonobod sh. | 105 |
| Shahrixon t. | 100 |
| Oltinko‘l t. | 81 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 80 |
| Ulug‘nor t. | 73 |
| Izboskan t. | 69 |
| Paxtaobod t. | 62 |
| Jalaquduq t. | 61 |
| Buloqboshi t. | 56 |
| Xo‘jaobod t. | 56 |
| Baliqchi t. | 55 |
| Marhamat t. | 49 |
| Bo‘ston t. | 36 |

Yashash bo‘yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar




2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 15,7 foizga oshgan bo‘lib, viloyatdagi jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,1 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo‘yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 92,9 foiz ulushini tashkil etdi.

# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 222 |
| Asaka t. | 45 |
| Baliqchi t. | 40 |
| Marhamat t. | 39 |
| Shahrixon t. | 36 |
| Xo‘jaobod t. | 35 |
| Buloqboshi t. | 34 |
| Andijon t. | 30 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 23 |
| Oltinko‘l t. | 20 |
| Paxtaobod t. | 17 |
| Jalaquduq t. | 15 |
| Izboskan t. | 14 |
| Xonobod sh. | 10 |
| Ulug‘nor t. | 10 |
| Bo‘ston t. | 6 |




2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,3 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga oshgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko‘rsatish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 39,6 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 95,2 foizni tashkil etgan.

# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 387 |
| Asaka t. | 92 |
| Shahrixon t. | 90 |
| Andijon t. | 70 |
| Izboskan t. | 60 |
| Baliqchi t. | 57 |
| Marhamat t. | 49 |
| Oltinko‘l t. | 47 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 46 |
| Xo‘jaobod t. | 44 |
| Paxtaobod t. | 43 |
| Buloqboshi t. | 41 |
| Jalaquduq t. | 37 |
| Xonobod sh. | 17 |
| Bo‘ston t. | 9 |
| Ulug‘nor t. | 6 |

Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat: **1 065** — 113,2 %

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash: **18** — 112,5 %

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish: **12** — 171,4 %

2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog‘liqni saqlash sohasi yo‘nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,2 foizga o‘sgan.

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining 1,6 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,5 foizga oshgan.

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 71,4 foizga o‘sgan.

# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 595 |
| Asaka t. | 134 |
| Andijon t. | 101 |
| Shahrixon t. | 78 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 64 |
| Izboskan t. | 54 |
| Xo‘jaobod t. | 52 |
| Marhamat t. | 51 |
| Oltinko‘l t. | 51 |
| Baliqchi t. | 51 |
| Paxtaobod t. | 50 |
| Jalaquduq t. | 41 |
| Bo‘ston t. | 40 |
| Buloqboshi t. | 38 |
| Ulug‘nor t. | 18 |
| Xonobod sh. | 16 |

| | | |
|---|---|---|
| Quruqlikdagi va quvur transporti | 1 101 | 106,5 % |
| Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | 308 | 95,4 % |
| Pochta va kuryerlik faoliyati | 24 | 96,0 % |
| Havo transporti | 1 | 100,0 % |

2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 6,5 foizga oshgan. Havo transporti yo‘nalishida 100,0 foizni, pochta va kuryerlik yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 96,0 foizni hamda ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishida 95,4 foizni tashkil etgan.

# Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tadbirkorlik subyektlari soni

| | | |
|---|---|---|
| **30 053**<br>113,0 %<br>mas’uliyati cheklangan jamiyat | **4 421**<br>85,2 %<br>xususiy korxonalar | **2 995**<br>106,1 %<br>oilaviy korxonalar |
| **157**<br>92,9 %<br>unitar korxonalar | **38**<br>95,0 %<br>aksiyadorlik jamiyati | **375**<br>118,3 %<br>boshqalar |

## Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;

-tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;

-idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;

-ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2022- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni |
|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 956 |
| Sanoat | 565 |
| Qurilish | 156 |
| Savdo | 999 |
| Tashish va saqlash | 97 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 88 |
| Axborot va aloqa | 71 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 71 |
| Boshqa turlar | 224 |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 587 | Xo'jaobod t. | 177 |
| Baliqchi t. | 346 | Marhamat t. | 173 |
| Andijon t. | 282 | Oltinko'l t. | 160 |
| Shahrixon t. | 257 | Jalaquduq t. | 126 |
| Asaka t. | 246 | Buloqboshi t. | 109 |
| Izboskan t. | 207 | Bo'ston t. | 77 |
| Qo'rg'ontepa t. | 188 | Ulug'nor t. | 61 |
| Paxtaobod t. | 186 | Xonobod sh. | 45 |

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida ma’lumot

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 9 449 |
| Asaka t. | 2 326 |
| Andijon t. | 2 149 |
| Shahrixon t. | 2 056 |
| Baliqchi t. | 1 649 |
| Izboskan t. | 1 617 |
| Oltinko‘l t. | 1 461 |
| Xo‘jaobod t. | 1 405 |
| Marhamat t. | 1 399 |
| Paxtaobod t. | 1 331 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 1 321 |
| Jalaquduq t. | 1 213 |
| Buloqboshi t. | 894 |
| Xonobod sh. | 639 |
| Ulug‘nor t. | 587 |
| Bo‘ston t. | 557 |

2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan 38 039 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 30 053 tani tashkil etdi. Shunga asoslanib, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, o‘sish qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (152,3 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (116,9 foiz), savdo (114,9 foiz), sanoat (109,3 foiz), axborot va aloqa (107,7 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (106,0 foiz) sohalarida kuzatilgan bo‘lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (131,3 foiz), Marhamat (124,6 foiz), Paxtaobod (123,4 foiz), Izboskan (122,4 foiz), Bo‘ston (121,6 foiz) va Ulug‘nor (121,5 foiz) tumanlarida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish kuzatilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | O‘sish |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 730 | 152,3 % |
| Sanoat | 7 378 | 109,3 % |
| Qurilish | 2 915 | 102,9 % |
| Savdo | 10 174 | 114,9 % |
| Tashish va saqlash | 1 325 | 105,0 % |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 352 | 106,0 % |
| Axborot va aloqa | 474 | 107,7 % |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 823 | 116,9 % |
| Boshqa turlar | 2 882 | 107,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| **341**<br>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | **910**<br>Sanoat | **307**<br>Qurilish |
| **1 752**<br>Savdo | **61**<br>Tashish va saqlash | **287**<br>Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar |
| **93**<br>Axborot va aloqa | **162**<br>Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | **508**<br>Boshqa turlar |

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o‘sish sur’ati




## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 1 200 | Oltinko‘l t. | 181 |
| Asaka t. | 736 | Jalaquduq t. | 166 |
| Baliqchi t. | 363 | Paxtaobod t. | 147 |
| Shahrixon t. | 263 | Izboskan t. | 134 |
| Qo‘rg‘ontepa t. | 254 | Buloqboshi t. | 109 |
| Andijon t. | 234 | Bo‘ston t. | 93 |
| Marhamat t. | 205 | Xonobod sh. | 77 |
| Xo‘jaobod t. | 201 | Ulug‘nor t. | 58 |

2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 14,8 foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘sish sur’atlarining o‘tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (67,4 foiz), qurilish (75,2 foiz), tashish va saqlash (78,2 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohalari (78,9 foiz) shuningdek, hududlar kesimida esa – Paxtaobod (71,4 foiz), Andijon shahri (72,2 foiz), Shahrixon (81,9 foiz) va Qo‘rg‘ontepa (82,2 foiz) tumanlari ta’sir ko‘rsatmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

*2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | | |
|---|---|---|
| **351** Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | **1 272** Sanoat | **25** Qurilish |
| **804** Savdo | **29** Tashish va saqlash | **326** Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar |
| **12** Axborot va aloqa | **23** Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | **153** Boshqa turlar |

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Andijon sh. | 793 | Buloqboshi t. | 90 |
| Asaka t. | 543 | Baliqchi t. | 60 |
| Andijon t. | 309 | Xonobod sh. | 56 |
| Bo'ston t. | 304 | Jalaquduq t. | 37 |
| Shahrixon t. | 251 | Paxtaobod t. | 35 |
| Qo'rg'ontepa t. | 198 | Ulug'nor t. | 33 |
| Oltinko'l t. | 146 | Marhamat t. | 26 |
| Izboskan t. | 102 | Xo'jaobod t. | 12 |

2022- yil 1- avgust holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 995 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 92,1 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 106,1 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda qurilish (131,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (121,1 foiz), tashish va saqlash (116,0 foiz), savdo (111,8 foiz) hamda axborot va aloqada (109,1 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Shahrixon (121,8 %), Bo'ston (121,6 %), Baliqchi (117,6 %), Andijon (116,2 %), Qo'rg'ontepa (110,6 %) va Paxtaobod (109,4 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

*2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda*

## Yillar kesimida soni




## Yillar kesimida o'sish sur'ati




2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 400 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 107,0 foizga, ya'ni 26 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (140,0 foiz), qurilish (128,0 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz) hamda savdo (120,0 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (140,0 foiz), Asaka (138,1 foiz), Jalaquduq (121,4 foiz), Baliqchi (114,3 foiz), Bo'ston (114,3 foiz) hamda Paxtaobod (112,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida

| | |
|---|---|
| Andijon sh. | 159 |
| Andijon t. | 31 |
| Asaka t. | 29 |
| Shahrixon t. | 28 |
| Oltinko'l t. | 22 |
| Xonobod sh. | 18 |
| Buloqboshi t. | 17 |
| Jalaquduq t. | 17 |
| Marhamat t. | 14 |
| Xo'jaobod t. | 14 |
| Qo'rg'ontepa t. | 14 |
| Paxtaobod t. | 9 |
| Baliqchi t. | 8 |
| Bo'ston t. | 8 |
| Izboskan t. | 7 |
| Ulug'nor t. | 5 |

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 26 |
| Sanoat | 203 |
| Qurilish | 32 |
| Savdo | 66 |
| Tashish va saqlash | 4 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 10 |
| Axborot va aloqa | 5 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 7 |
| Boshqa turlar | 47 |

# Davlatlar kesimida, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

| Davlat | 2022 | 2021 | % |
|---|---|---|---|
| Rossiya | 94 | 86 | 109,3 % |
| AQSH | 4 | 2 | 200,0 % |
| Germaniya | 2 | 3 | 66,7 % |
| Xitoy | 80 | 77 | 103,9 % |
| Turkiya | 51 | 42 | 121,4 % |
| Janubiy Koreya | 46 | 47 | 97,9 % |
| Ozarbayjon | 3 | 5 | 60,0 % |
| Turkmaniston | 1 | 1 | 100,0 % |
| Tojikiston | 4 | 3 | 133,3 % |
| Qozog‘iston | 9 | 8 | 112,5 % |
| Qirg‘iz R. | 51 | 42 | 121,4 % |
| boshqalar | 55 | 58 | 94,8 % |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 252 tasi qo‘shma korxonalar, 148 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*




So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyot jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri –** axborot-ma’lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan –** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan –** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yangi tashkil etilgan –** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi –** ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar –** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar –** norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.




**Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo‘mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.**

**Andijon viloyati statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.: 74 228-29-74**